

**“HOTAMNOMA” ASARIDAGI AYRIM FE’LLARNING
LINGVOFOLKLORISTIK TAHLILI ABDUMANNATOVA NAFISA
ABDUMAJIT QIZI**

N.Abdumannatova, SamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada saxiylikning oliy timsoli Hotami Toy va uning qahramonliklari tasvirlangan xalq kitobi - “Hotamnoma” matnidagi ayrim fe’llar lingvofolkloristik jihatdan tahlil qilingan. Unda tahlilga tortilgan fe’llarning yasash tizimiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Folklor leksikasi, “Hotamnoma”, leksikografiya, dialektologik tahlil, lingvofolkloristik tahlil.

Lingvofolkloristik tadqiqotlarda folklor matnlarida so‘z yasash tizimiga alohida e’tibor qaratiladi. Boisi leksikografik fondni shakllantirishda so‘z yasash tizimini tahlil qilish juda muhim. Odatda folklor matnlarini tahlil qilishda turli yondashuvlar mavjud. Xususan, folklor matnlarining til xususiyatlarini tahlil qilish, dialektologik tahlil, folklor tahlili, lingvopoetik tahlil. Ayni shular sirasida lingvofolkloristik tahlilni farqlash joiz. A.T.Xrolenko lingvofolkloristik tahlilda obyektning leksik-semantik, stilistik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish lozimligini, shuningdek, folklorda lakonizm, alogizmlarni yuzaga chiqaruvchi vositalarning ahamiyatini o‘rganish, turli madaniy qatlamlarga oid xususiyatlarni aniqlash, hududiy nuqtayi nazardan tahlil qilinishi mumkinligini ko‘rsatadi. Lingvofolkloristika folklor matnlarining faqat til xususiyatlarinigina tahlil qilishga qaratilgan soha emas. Shu o‘rinda agarda faqat lingvistik xususiyatlari tahlil qilinsa, badiiy asarning lingvistik yoki lingvopoetik tahlilidan qanday farqi bo‘ladi degan o‘rinli savol tug‘ilishi mumkin. Shu boisdan lingvofolkloristikada yondashuv keng mohiyat kasb etishini alohida ta’kidlagan holda quyidagi aspektlar tekshirilishi lozim:

1.Folklor matnining til xususiyatlari (leksik, morfologik, sintaktik).

Ularda bugungi davr bilan bog'liqlik. Til tarixi nuqtayi nazardan muayyan davrga oid xususiyatlarni baholash. O'ziga xosliklarni aniqlash). Ushbu jihatlariga ko'ra "Hotamnoma" asari lingvofolkloristik tahlilida so'z yasalish tizimi, sinxron va diaxron so'z yasalishi, ularning aynan qaysi davr til xususiyatlarini namoyon qilishi, aynan biror so'z turkumida o'ziga xos yasalish tizimi mavjud yoki mavjud emasligi tekshiriladi.

2.Folklor matnining dialektologik xususiyatlari (folklor tilida muayyan sheva-dialekt elementlarining aks etishi. Ta'kidlangan hududlar orqali lingvogeografik tadqiqqlarni amalga oshirish); "Hotamnoma" asarining dialektologik xususiyatlari tahlilida sujet kartografiyasi (qaysi hududlarda sodir bo'lgan?) va uning til xususiyatlariga aloqadorlik jihati, muayyan sheva va dialektlarga xos xususiyatlarning mavjud yoki mavjud emasligini tekshirish lozim.

3.Folklor matnining lingvokulturologik xususiyatlari

(Matnda muayyan etnosga xos bo'lgan an'ana, qadriyat, marosimlarning aks etishi, yoki muayyan madaniy qatlamga ishoraning mavjudligi. Berilish shakli. Tasviriy vositalarning qo'llanilishi). Aytish joizki, "Hotamnoma" asari sujetida turli madaniy qatlamlarga doir urf-odat, qadriyatlar aks etadi. Ular bir-biridan shakily va mazmuniy jihatdan farq qiladi.

4. Folklor matnida lakonizm va alogizm. Lakonizm (yun. lakonismos — qisqalik) — fikrni bayon qilishdagi qisqalik va aniqlik. Lakonizm adabiy ifoda vositasi sifatida asarda ortiqcha tafsilotlarga berilmaslikni, mezonni bilish va vazminlikni anglatadi. Tildagi lakonizm uchun oz so'z bilan ko'p ma'no bayon etish muhim sanaladi. Hikmatli so'zlar, topishmoq, maqol, iboralar, shiorlar lakonizm namunalaridir. *Alogizm* (yun. a — inkor qo'shimchasi, logos — idrok) — ilmiy bilishda mantiqiy fikrlashning rolini inkor etadigan oqim.

A.T.Xrolenko lingvofolkloristikada alogizm tahlilida mantiqqa to'g'ri kelmaydigan har xil tasvir vositalari: g'ulu, ig'roq, litota singlarlar, shuningdek, har xil sehr-jodu, afsun bilan bog'liq holatlarni nazarda tutadi.

[Лингвофольклористика, 2008:18]

5.Folklor matnida folklor motivlari va ularning ifodalanishi.(sayyor sujetlar, qoliplar, janriy o'ziga xosliklar, tuzilishi).

6.Folklor matni lingvostatistikasi (topishmoqlarda muayyan obrazlar chastotasi, dostonlarda so'zlar, topishmoqlar, qoliplar chastotasi)

Tilimizda mahsuldorligini yo'qotgan so'z yasovchi qo'shimchalarning hozirgi o'zbek tilida mavjudligini ikki jihatdan baholash mumkin: 1) so'z yasash qobiliyatini saqlab qolgan qo'shimchalar. 2) ildiz tarkibiga singib, mustaqilligini yo'qotgan qo'shimchalar. Quyida biz ularning tasnifini batafsil ko'rib chiqamiz.

“Uyqu” so'zini uy “uy” va -qu morfemalariga ajratish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Taniqli turkolog olimlar [Monuments of ancient Turkic writing, 1951:20] bu so'zning o'zagi u (u) ekanligini ko'rsatib, “Devon”da uz “uyqu” ekanligi ta'kidlangan: “Emdi uzin uzindi” (Endi uyqudan uyg'ondi). [Devonian dictionary Turkish.,1960:35] Turkman tilida uvqi (Arazquliyev. Do'rtgul, 194), tarixiy matnlarda “uz” va “ud” variantlari ham uchragan. “Uyqu” (Uyqu) o'zbek, qirg'iz, qozoq, uyg'ur tillarida. Turkiy tillarda d~z~v~y mavjudligini hisobga olsak, “y”li variant oxirgi shakllangan, degan xulosaga kelish mumkin. 18—19-asrlarda yozilgan matnlarda “uyqu” (uyqu) ~ (uyqu) “uyqulamoq” shakli ham qo'llanilgan. “Hotamnoma”da ham uyqulamoq tarzida qo'llanilgan. Xususan: *Ko'rdilarki, odamizod uyqulabdur.[94]Hotam ul sufaning to'pasig'a chiqib uyquladi.* [XOTAMHOMA,1988:45] Shuningdek kompozitsiya usulida yasalgan fe'llardan *bo'l* va *qil* komponentlarining salmog'i yuqori:

Qilmoq fe'li bilan: *Savol qilmoq, o'bdanliq qilmoq, daf qilmoq, sarf qilmoq, zoye qilmoq, tavallud qilmoq, bovar qilmoq, tay qilmoq, xayrbod qilmoq, anbor qilmoq, vido qilmoq, ovoz qilmoq, muof qilmoq, tuban qilmoq, nisor qilmoq, ko'shish qilmoq.*

Bo'lmoq fe'li bilan: *giriftor bo'lmoq, behtar bo'lmoq, diltang bo'lmoq, zoyil bo'lmoq, mutaffaq bo'lmoq, daruig' bo'lmoq, maxfuz bo'lmoq, muntazir bo'lmoq, xo'b bo'lmoq, behud bo'lmoq.*

Quyidagi xulosalarga tayanib, Hotamnoma asarida morfologik qoldiqlarning mohiyatini aniqlash mumkin:

1. Folklor matnining qadimiy holatini tiklash uchun uning hozirgi lisoniy qiymatiga zid bo‘lgan ma’nolarni solishtirish zarur.

2. Hozirgi o‘zbek tilida saqlanib qolgan tarixiy yodgorliklar morfologik shakllarning qarama-qarshiligi folklor matnidan farq qilishi natijasida kashf etilishi mumkin.

3. Tildagi tarixiy izlar dialektik qonuniyatlar asosida – hozirgi tilda mavjud bo‘lgan variantlarning o‘zgarmas shaklini bilish orqali aniqlanadi.

4. Sinxron lingvistik qiymat diaxronik qiymatga mos kelmagan hollarda kuzatilishi mumkin va bu tartibsizlik ham til taraqqiyotiga xos ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хотамнома. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: А.Матғозиев. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 224 б.

2. Mahmud Kashgari. Devonian dictionary Turkish. Volume 1. – Toshkent, 1960. P. 46.

3. Malov S.E. Monuments of ancient Turkic writing. – Moskow; –L.: The science, 1951

4. Хроленко А.Т. Лингвофольклористика. Листая годы и страницы. Курск, 2008. Художественный язык фольклора кабардинцев и балкарцев. Нальчик, 1981.

5. Mamyunusovna, P. I. (2021). “BOBURNOMA” AS A HISTORICAL AND LITERARY SOURCE. Thematics Journal of Social Sciences, 7(5).

6. Каримова, С. (2021). Зебуннисобегим ше” риятида илоҳ ва мажоз тушунчаси. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 16-23.

Рахматова, Д. (2021). Сайқалланаётган “Ўткан кунлар”. Общество и инновации, 2(3/S), 173-179.